MEDIATEXNOLOGIYALARDAN O‘QUV JARAYONIDA FOYDALANISH VA TAKOMILLASHTIRISH

Sulaymanova Dildora Baxtiyorovna
TDTU Olmaliq filiali “Matematika va matematika” kafedrasi p.f.f.d. (PhD)
tel: +998936683645, e-mail: sdildora75@gmail.com

Annotatsiya:O‘quv jarayonida mediatexnologiyalar va ulardan foydalanishda olib borilgan ishlar haqida qisqacha keltirilgan.

Kalit so’zlar: Media, mediatexnologiya, mediamahsulotlar, telefon, kompyuter va h.k. kommunikatsiya vositalari, platforma.

Axborotlashgan jamiyatdan smart-jamiyatga o‘tish jarayonida media vositalarining axborot tarqatishda keng ko‘lamga egaligi, turli interfaol usullar yordamida shaxs ongi va ruhiyatiga kuchli ta’sir eta olish imkoniyatini inobatga olgan holda Informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitish jarayonini mediatexnologiyalar asosida tashkil etish bugungi kunning o‘ta dolzarb vazifalaridan biri sanaladi.

Media va mediatexnologiyalar, informatika va axborot texnologiyalarining rivojlanishiga xususiyatiga mavjud ilmiy va tadqiqiy manbalar tahlilidan ko‘rinadiki, ta’limni axborotlashtirish hamda mediata’lim taraqqiyotida Evropa mamlakatlari XX asrning 80-yillaridan boshlab katta ijobiy o‘zgarishlarni, yutuqlarni qo‘lga kiritganlar. Muammoni nazariy o‘rganish xorijiy mamlakatlar, xususan, AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada Rossiyada mediata’limni o‘qitish jarayoniga tatbiq etish bo‘yicha katta tajribalar to‘planganligini ko‘rsatdi. Ayni paytda mazkur davlatlar mavjud mediata’lim modelining ilg‘or nazariy va amaliy g‘oyalarini o‘zida ifodalab, mediata’lim tizimi, uni o‘qitish amaliyotiga samarali tatbiq etish borasidagi puxta ishlangan mexanizmiga ega.

O‘zbekiston sharoitida ta’limni axborotlashtirish, ta’lim jarayoniga informatika va axborot texnologiyalarini joriy etish borasida sezilarli ishlar olib borilganligiga qaramay, o‘qitish jarayonida mediatexnologiyalarni qo‘llash borasida olib borilgan ishlarni rivojlantirish va takomillashtirish zarurligi ma’lum bo‘ldi. Fikrimizning dalili sifatida Informatika va axborot texnologiyalari fanidan o‘qituvchilar quyidagi BKM ga ega bo‘lganliklari bilan izohlanadi.

- Informatika va axborot texnologiyalari fani va uning rivojlanish tarixini biladi;
- kompyuterni to‘g‘ri ishga tushiradi va o‘chira oladi;
- kompyuterda ishlashda xavfsizlik qoidalari va gigiena talablariga rioya etadi;
- kompyuterning asosiy qurilmalari va ularning vazifalarini biladi, ulardan foydalana oladi;
- axborot manbalaridan turli ko‘rinishdagi axborotlarni izlab topadi va yig‘a oladi;
- operatsion tizimning elementlaridan foydalana oladi.
- sodda grafik muharriri va uning imkoniyatlarini biladi;
- izlab topilgan grafik axborotlarni saqlaydi va foydalana oladi;
- matn muharriri va protsessori farqini, ularning imkoniyatlarini biladi, izlab topilgan matnli axborotlarni saqlaydi va foydalana oladi;
- matn protsessorining belgi, so‘z, satr, xatboshi, matn, blok, sahifa tartib raqami kabi tushunchalarini biladi, amalda qo‘llay oladi.
- axborotlarni kodlashga doir sodda misollar keltira oladi, amaliy mashqlarni bajara oladi;
- kompyuterning asosiy va qo‘shimcha qurilmalari hamda ularning vazifalarini biladi, ulardan foydalana oladi;

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari 5-sinf informatika va axborot texnologiyalari darslarini mediatexnologiyalardan foydalanib tashkil etishga doir maxsus metodika ishlab chiqildi va amaliyotda samarali qo‘llanildi

Mediamahsulotlar bilan tanishish

- Ko‘ngilochar mediamahsulotlar (o‘yin hamda hordiq chiqarish uchun yaratilgan mediamahsulotlar)
- Aloqa almashish (telefon, kompyuter va h.k. kommunikatsiya vositalari)
- Virtual media (ijtimoiy tarmoqlar, virtual hamjamiyatlar va h.k.)
- Onlayn ta’lim platformalari (uzedu.uz, utube.uz, va h.k.)

Demak, mediatexnologiyalardan quyidagi maqsadlarda foydalanish mumkin:
- o‘quvchilarda fanga doir bilimlarni o‘rganish uchun motivatsiyani oshirish;
- o‘quv jarayoni samaradorligini oshirish;
- o‘quvchilarni faollashtirishga ko‘maklashish;
- dars o‘tish usullarini takomillashtirish;
- o‘qitish va ta’lim natijalarini o‘z vaqtida kuzatib borish;
- ishni rejalashtirish va tartibga solish;
- o‘z-o‘zini tarbiyalash vositasi sifatida foydalanish;
- darsni samarali va qisqa vaqt ichida tayyorlash.

Mediatexnologiyalar ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan birgalikda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv va muammoli texnologiyalar, dasturlashtirilgan va loyihalashtirilgan ta’lim bilan birgalikda qo‘llanilganda juda yaxshi natija berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бирюкова Елена Сергеевна. Медиатехнологии в процессе обучения детей с расстройствами аутистического спектра и выраженными нарушениями интеллекта. https://autism-frc.ru/ckeditor_assets/attachments/773/08_biryukova.pdf

2. С.М. «Информатика: Развитие интеллекта школьников». – М.: Бином, 2005г.

3. Sulaymanova Dildora Bakhtiyorovna. "Content, form, method and means of teaching "Informatics and information technologies""using media technologies. World Bulletin of Management and Law (WBML) Volume-16 November-2022,37-40. https://scholarexpress.net/index.php/wbml/article/view/1594

4. Sulaymanova Dildora Bakhtiyorovna. “Mechanism of the process of organization of computer and information technology lessons through media technologies”. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 12 (10), 242-246. https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=12&issue=10&article=042

5. Sulaymanova Dildora “FORMS OF ORGANIZATION OF LESSONS INFORMATICS AND INFORMATICAL TECHNOLOGIES AT SCHOOLS” Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences, 2021/12/19,7-10 https://openconference.us/index.php/ysc/article/view/3

6. Sulaymanova Dildora Bakhtiyorovna.Experience in the application of mediatechnologies in teaching informatics in 5thgrade of schools (Middle European Scientific Bulletin, ISSN 2694-997080, VOLUME 12May 2021, 80-83) https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/517/464https://doi.org/10.47494/mesb.2021.12)

7. Sulaymanova Dildora Bakhtiyorovna. “USE OF MEDIA TECHNOLOGIES IN THE TEACHING OF COMPUTER SCIENCE”. (ELECTRONIC JOURNAL OF ACTUAL PROBLEMS OF MODERN SCIENCE, EDUCATION AND TRAINING. MAY, 2021- IX . https://khorezmscience.uz/en/site/view?id=8&page=7

8. Д.Б.Сулайманова. Информатика дарсларида медиатехнологиялардан фойдаланиш юзасидан ўқувчилар билимини ташхислаш. Academic research in educational sciences. 2021yil. NUU . 135-137 бетлар. https://cyberleninka.ru/article/n/informatika-darslarida-mediatehnologiyalardan-foydalanish-yuzasidan-uvchilar-bilimini-tashhislash/viewer

9. Д.Б.Сулайманова. Информатика дарсларида медиатехнологиялардан фойдаланиш орқали ўқувчилар фаоллигини ошириш. ЎзМУ хабарлари. Тошкент-2021yil (1/4) . 168-171 бетлар. https://science.nuu.uz/admin/pdf/Uzmu-14-2021(Mundarija).pdf

10. D.B.Sulaymanova “Formation of skills of using mediatechnologies in pupils”.Таълим ва инновацион тадқиқотлар. 2021 № 4. 61-65 bet. file:///C:/Users/User/Downloads/14-23-PB%20(1).pdf

https://doi.org/ 10.53885/edinres.2021.52.25.009